

## JANNI RODARI ASARLARIDA QAHRAMONLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Nishonova Muhayyo,

Marg`ilon shahar 1-DIUM o`qituvchisi

**Annotation:** Ushbu maqolada chinakam bolalar yozuvchisi Janni Rodarining asarlarida qahramonlarning tasvirlanishi, didaktik vazifasi hamda o`ziga xosligi haqida so`z yuritilgan. Obrazlarning turfa xilligi va yuklangan badiiy vazifasi olib berishga harakat qilingan.

**Kalit so`zlar:** “Telefonda aytilgan gaplar” to`plami, Husan Ro`zmatov tarjimasi, xarakter, noodatiy obraz, tugallanma.

Bolalar ko`nglidan chuqur joy olgan asarlari bilan dunyoga tanilgan chet el yozuvchilari kam emas, albatta. Shunday yozuvchilardan biri, adibning o`zi ta`kidlaganidek, “olov jizillab turadigan tandir yonida kechdi” - deya bolalik yillarini esga oluvchi bolalarning sevimli yozuvchisi Janni Rodaridir.

Otasini erta yo`qotgan Janni uchun og`ir mas`uliyat yuklanib, oila tebratish uning zimmasiga tushadi. Janni bolaligida barcha bolalar kabi orzu qilar ekan, bolalarga jajji qo`g`irchoqlar yasab va bolalarcha rasm chizib, rassom bo`lish uning ulkan niyati edi. Ammo uning hayot yo`li o`zgacha kechgani bois mактабдан so`ng yosh Janni universitetga o`qishga kirib, shu davrda u o`qituvchilk bilan faoliyat yuritadi. U o`z kasbiga o`zgacha shijoat bilan yondashar ediki, bolalar bilan yaqindan muloqotda bo`lishi, ularning fe'l-atvori, bir-biridan ajoyib qiliqlari, takrorlanmas qiziqishlarini chuqur o`rganish uning o`z ijodiga muhabbatini oshirib, muvaffaqiyatlarga erishishga turtki bo`lgan, desak mubolag`a bo`lmaydi.

Italyan yozuvchisi Janni Rodari qalamiga mansub “Telefonda aytilgan ertaklar” to`plami boshqa asarlari kabi o`z o`rnii va ahamiyatiga egadir. Ushbu asar bir necha marotaba nashrdan chiqqan, ammo ilk bor 1962-yilda chop etilgan bo`lib, to`plam ko`plab tillarga tarjima qilingan, masalan, asarni rus tilidan o`zbek tiliga Husan Ro`zmatov tarjima qilgan bo`lib, muallifning o`zbek tilidagi “Rim ertaklari” to`plamiga kiritilgan. U bolalarning sevimli ertaklari jamlangan to`plamdir. “Telefonda aytilgan ertaklar” turkumida juda ham qiziqarli ertaklar to`plangan bo`lib, ulardan: ”Shokoladli uy”, ”Mitti ayol”, ”Alisa qanday qilib dengizga tushib ketdi”, ”Alisa gup-gup”, ”Xayoli parishon bola”, ”Kel raqam o`ylab topamiz”, ”Qochoq burun”, ”Ko`k svetofor”, ”Qutbdagi gunafsha” va shu kabilar.

Har bir yozuvchining o`z asarlariga qahramonlar tanlashga bo`lgan istaklari turlicha bo`ladi. Janni Rodari ham turlicha asar yaratish ekan, har bir ijod mahsulida turli xarakterdagi, o`zgacha hamda noodatiy obrazlar orqali o`zining ichki dunyosidagi qahramonlarni yaratadi. Janni Rodari asarlari boshqa chet el yozuvchilarining

asarlaridan tubdan farq qilib, u yangicha yondashuv bilan ertaklarini uch xil tugallanma bilan yakunlashni jahon adabiyotiga tadbiq qildi va bu jahon adabiyotida takrorlanmas usul bo‘lib qoldi. Masalan:”Telefonda aytilgan ertaklar” turkumidan o‘rin olgan “Muzqaymoqdan qurilgan uy” ertagiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushu ertak sarguzashtlarga boy ertaklardan hisoblanib, ertakdagi qahramonlar asosan, bolalar hamda ajoyib mashhur Boloniya shahri haqida. U shahar shirinliklardan iborat bo‘lib, tomi esa marmeladdan qurilgan shirinlikka boy shahar haqida ajoyib sarguzashtlar bayon etiladi. Ertak bolalarning sevimli taomi muzqaymoqdan qurilgan uy boshqa mamlakatlardan mehmonlar kelishiga ham sababchi bo‘ladi. Bolalar shirinliklarni sevib iste’mol qilishadi, shunday ekan muzqaymoqdan qurilgan uyni yesa ham yoshi kattalar “bu bolalar hech to‘ymas ekan,” - deya tanbex berishdan charchamaydi.

Shuni ta’kidlab aytish joizki, agar bolalar shu kabi ertaklarni o‘qib mutolaa qilsa, bo`lajak Janni Rodarilar, Aka -uka Grimmlar kabi bolajonlarni seuvuchi buyuk bolalar shoirlari yetishib chiqadi, shubhasiz. Bolalarni sevgan, bolalikni ko`p bora talqin qilgan insondan hech qachon vatanga, oilaga, do`st- birodar kabi atrofdagilarga nisbatan salbiy tuyg`u uyg`onmaydi.

Janni Rodari asarlari qahramonlari asar syujetini mukammallashtira oladigan, yozuvchi mahoratini yuzaga chiqarib beradigan obrazlardir. Bu kabi qahramonlarni Yevropa bolalar yozuvchilari ijodida hech bir holatda uchratmaysiz. Qahramonning samimiyligi, og`ir-bosiq xarakteri va ayni damda xozirjavobligi sizni beixtiyor lol qoldiradi. Asar davomida obrazlarning harakatlanish chizmasini oldindan bashorat qila olmaysiz, sababi J.Rodari asar syujetida qahramonlarining “qo‘li” bilan kutilmagan tub burilishlar, noodatiy ko`rinishlar, tasodiflar yaratishga juda usta. Balki bu mahorat uning qahramonlariga betakrorlik bag`ishlar.

Janni Rodaridagi dunyo bolalari uchun kuyunchaklik hissi butun jahon bolalar adiblarining bolalarga bag`ishlab yozgan eng sara asarlari tanlovini tashkillashga chorlagan. Bu tanlovda o‘zbek bolalar adibi X.To`xtaboyev ishtirot etib, o‘zining “Sehrli qalpoqcha” asari bilan Janni Rodarining nazariga tushgan. X.To`xtaboyev esdaliklarida yozishicha, bu asarni italyan bolalariga ilingani uchun Rimning mashxur “UNITO” bolalar jurnalida chop ettirgan.

Bolalar adiblari bolalar tasavvur olamida shakllanadigan obrazlarni yaratgandagina sevimli adibga aylanadi. Agar bola tasavvuri ojizlik qilsa, qahramonni anglay olmasa, ongiga singdirolmasa, bu qahramon ham, asar ham, yozuvchi ham sevilmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Janni Rodari. Rim ertaklari. R.: “Dedalo”.1985.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. T.:O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti. 2006.

3. Jamilova B. O`zbek bolalar adabiyoti. T.:”Innovatsiya-ziyo”. 2020.
4. M.O.Tokhirjonovna. VOCABULARY DEVELOPMENT IN ONTOGENESIS IN PRESCHOOL CHILDREN. Modern Journal of Social Sciences and Humanities 5, 375-379
5. M.O.Tokhirjonovna.Semantics of the Word in Children's Speech. International Journal of Culture and Modernity 17, 267-273
6. O.Maxmudova. СЎЗ ЛЕКСИК МАЊНОСИННИГ ҲОСИЛА МАЊНО ЮЗАГА КЕЛТИРИШИ. Science and innovation 1 (B6), 171-176
7. O.T.Maxmudova. TURKIY SO‘ZLARDA O‘ZAK MORFEMA TUSHUNCHASI. Journal of Integrated Education and Research 1 (6), 52-54
8. O.T.Maxmudova. ONA TILINI O`RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH. Innovative development in the global science 1(5), 81-87.
9. O.Maxmudova. OZBEK TILSHUNOSLIGIDA BOGIN VA UNING TIPLARI YUZASIDAN OLIB BORILGAN IZLANISHLAR. OLIY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 105